

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ESHMIRZAYEV ALISHER PARDA YEVICH**

**MAHALLIY PILLALARDAN YUQORI SIFATLI XOM IPAK OLİSH VA  
LOSINI QAYTA ISHLASH TEKNOLOGIYALARINI ASOSLASH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

<b>Eshmirzayev Alisher Pardayevich</b> Mahalliy pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish va losini qayta ishlash texnologiyalarini asoslash .....	3
  <b>Эшмирзаев Алишер Пардаевич</b> Обоснование технологии получения высококачественного шелка-сырца и переработки сидра из местных коконов .....	33
  <b>Eshmirzaev Alisher Pardaevich</b> Scientific justification of the technology for obtaining high-quality raw silk and reprocessing silk reeling waste from local cocoons.....	64
  <b>E’lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works</b> .....	68

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ESHMIRZAYEV ALISHER PARDADEVICH**

**MAHALLIY PILLALARDAN YUQORI SIFATLI XOM IPAQ OLİSH VA  
LOSINI QAYTA ISHLASH TEKNOLOGIYALARINI ASOSLASH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T797 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.ttysi.uz>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Gulamov Azamat Eshonkulovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyeva Iroda Abdusamatovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Valiev Gulam Nabidjonovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Umarov Shavkat Ramazanovich**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "15"-yanvar soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: (pochta@ttysi.uz), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (261-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29"-dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil "29"-dekabrdagi **IPAKCHILIK FAN VA YENGIL SANOAT INSTITUTI** reestr bayonomasi).



**X.H.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda bugungi kunda 30 dan ortiq mamlakatlarda tut ipak qurti parvarishlanib, 840-860 ming tonna pilla xomashyosi tayyorlanib, 60 dan ortiq davlatlarda qayta ishlanib, ipak mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda<sup>1</sup>. Ipak ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatida yuqori metrik nomerga ega bo‘lgan pilla ipiga talab yil sayin ortib bormoqda. Shuningdek, pillani chuvishga tayyorlash va chuvish bo‘yicha texnologik rejimlar o‘rganilib, ulardan yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarishni amaliyotga joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Olingan xom ipakdan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali ularning sifatini oshirish muhim hisoblanadi. Ipak ishlab chiqarish sohasida xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Xitoy, Hindiston, Braziliya, Yaponiya, Janubiy Koreyada qator yutuqlarga erishilgan bo‘lib, pilla chuvish korxonalarining samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlovchi texnologiyalarni yaratish va ularni takomillashtirish, yangi assortimentlarni yaratish muhim vazifalardan biridir.

Jahonda ipakni ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishiga keng e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, xususan, pillalarni qayta ishlashda xomashyodan samarali foydalanish, resurstejamkor texnologiyalarni yaratish va ularni takomillashtirish, sifatli xom ipak hamda ulardan raqobatbardosh mahsulotlar olish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada zamonaviy zot va duragay pillalari iplarining xususiyatlarini hisobga olib, chuvish jarayonida zarur bo‘lgan texnologik parametrlarini ishlab chiqish, texnologik uskunalarining xom ipak sifatiga ta’sirini tadqiq etish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizda tut ipak qurtining yangi zot va duragaylarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish, ipak xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “....ipak mahsulotidan shoyi gazlamalari tayyor mahsulotlari, shuningdek, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mayjud bo‘shliqlarni to‘ldirish orqali 2026-yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish....”<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda pilla xomashyosini yetishtirishdan boshlab, xom ipak olish va uni qayta ishlashni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini joriy etish, mahalliy xomashyolardan foydalanib, raqobatbardosh va sifatli xom ipak olishning samarali texnika-texnologiyasini yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 3-maydagi PF-72-soni “Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 12-yanvardagi PQ-3472-soni “Respublikada ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 24-fevraldagi PQ-73-soni “Ipakchilik tarmog‘ini yanada

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ipak\\_qurti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ipak_qurti)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni.

rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishlari Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.** Mahalliy pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish hamda losini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqarish ilmiy asoslarini, to'qimachilik va yengil sanoat texnika-texnologiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar, tabiiy va kimyoviy tolalarni qayta ishlashda yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Manchester University (Angliya), Ghent University (Belgiya), International Association of Silk Road Universitu (Yaponiya), Kyoto University (Yaponiya), Dortmund Technical University (Germaniya), Sichuan University (Xitoy), University of Piraeus (Gretsiya), South Indian Textile Research Association (Hindiston), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti, O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Xom ipak, ipak mahsulotlari texnologiyalarini takomillashtirish va birlamchi los mahsulotlarini zamon talablaridagi turlarini yaratish borasida jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: sifatli xom ipak iplarini moslanuvchan texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimlari ishlab chiqilgan (Tajima, Yaponiya; Eton Ups, Shvetsiya; Schonenberger, Fransiya; Datatron, Germaniya); ipak chiqindilaridan suyuq gul qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi usullari yaratilgan (Turbo va Heberlein, Shveysariya).

Dunyoda sifatli ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: yuqori ipakchanlikka ega bo'lgan yangi zot va duragay pillalarini yaratish asosida yuqori sifatli xom ipak olish texnologiyasini takomillashtirish; tabiiy ipak xususiyatlariga o'xhash iplarni yaratish; pilla yetishtirish, uning hosildorligini oshirish; pillani chuvish texnologiyalarini takomillashtirish, pillaning muqobil o'lchamlarini aniqlash, yuqori sifatli xom ipak, ipakli mato va ipak tolali chiqindilaridan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning yangi turdag'i assortimentlarini yaratish.

**Muammoni o'r ganilganlik darajasi.** Pillaga dastlabki ishlov berish, chuvish va sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, ipak matolari va boshqa mahsulotlarni yuqori talabga ega bo'lgan yangi assortimentlarini kengaytirish masalalari bo'yicha ushbu yo'nalishda nazariy va amaliy asoslarini yaratishga doir qator chet el olimlari: V.V.Linde, Ye.N.Mixaylov, G.N.Kukin, A.N.Solovyev,

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://silkroaduniversity.uz/>; <https://www.mpiwg-berlin.mpg.de/research/projects/international-association-study-silk-road-textiles>; [https://www.sun-silkroadia.org/page/activity01\\_2](https://www.sun-silkroadia.org/page/activity01_2); <https://www.shinshu-u.ac.jp/faculty/textiles/english/globalnetwork>; <https://www.oc.kyoto-u.ac.jp/agreement/en/mou> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

V.A.Usenko, G.Savvas, G.Koshy, G.Mentges, C.Minano, S.Gunze, S. Pan, H.Chen, J.Mo va boshqalar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Respublikamizda boshlang‘ich xomashyo parametrlari va pillakashlik jarayonidagi texnologik rejimlari bo‘yicha xom ipak sifatini bashorat qilish, pilla qobig‘i nuqsonlarini va chuvish jarayonlari dinamikasi ta’sirini tadqiqi, yangi strukturali ipak hamda aralash matolar ishlab chiqarishning ilmiy asoslangan texnologiyalarni takomillashtirish masalalari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar mamlakatimizning bir qator olimlari tomonidan olib borilgan. Jumladan: X.A.Alimova, R.Z.Burnashev, U.Nasrullayev, M.Z.Abdukarimova, Sh.A.Qodirov, A.E.Gulamov, B.Nasrullayev, I.A.Nabiyeva, A. Y. Raximov, N.M.Islambekova, J.A.Axmedov, K.R.Avazov, Y.A.Karimov, Sh.R.Fayzullayev va boshqalar.

Bugungi kunga kelib, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariда ipakchilik korxonalarining samarali ishlashi, zamonaviy dastgohning sifatli xom ipak ishlab chiqarish jarayoniga, hozirgi kun talabiga qarab mahalliy zot duragay pillalarni tanlashga, chuvish jarayonidagi texnologik rejimlarni takomillashtirib, ratsional rejimlarini ishlab chiqish ularning sifatini talab darajasiga moslashiga bog‘liqligi yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy ishlari rejasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagи №PQ-307-son qarori 7-ilovasidagi Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi loyihamalar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari – “Tabiiy ipak tolali chiqindilardan sifatli momiq ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” (2022-2024) hamda “Tabiiy ipakdan kostyumbop mato ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini ishlab” (2022-2023) mavzularidagi loyihamalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Ipakchilik klaster tizimida pilla xomashyosini chuqur qayta ishslash va yuqori sifatli ipak mahsulotlarini olish texnologiyasini takomillashtirish hamda chiqindilarni qayta ishlab assortimentini kengaytirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

ipak qurti seleksiyasi va sifatli pilla xomashyosini tayyorlash holatini tahlil etish;

xom ipakni shakllanishi jarayonida uning parametrlariga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liqlik matematik modelini tuzish ratsional qiymatlarni asoslash;

xom ipak jipsligining o‘zgarishi va namliginining kamayishini mustahkamligiga ta’siri qonuniyatlarini nazariy modellar yordamida aniqlash;

rejimlar asosida olingan xom ipakni charxga o‘rashni, fizik-mexanik va texnologik xususiyatlarini tadqiq etish;

pillalarni chuvish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish hamda xom ipakni shakllanish parametrlarini ishlab chiqish;

pillaning birlamchi los chiqindilarini utilizatsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mahalliy zot va duragaylari, turli mavsumlarda yetishtirilgan pillalarni texnologik xususiyatlari hamda hosil bo‘ladigan tolali chiqindilar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida birinchi va ikkinchi mavsumlarda yetishtirilgan Oltin vodiy-2 duragayi pillalarining texnologik xususiyatlari, chuvich jarayoni hamda ipakli chiqindi loslarini qayta ishlash olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni bajarish jarayonida iplar mexanikasi, tajribalarni rejalash, analiz va matematik statistika, amaliy matematekaning kichik kvadratlar, ko‘p faktorli regression modelllar qurish, sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

texnologik tahlillar natijasida birinchi va ikkinchi mavsumlarda yetishtirilgan yangi rayonlashtirilgan pilla duragaylari uchun boqish jarayonida xona harorati hamda namligini me’yorlashtirish asosida navli pillalar hosildorligini oshirish rejimlari ishlab chiqilgan;

xom ipak shakllanishi jarayonida chirmoviqni hosil qiluvchi roliklar tizimini bir-biriga bog‘liqligining matematik modeliga asoslanib, xom ipak shakllanishidagi parametrlarning qiymatlari ishlab chiqilgan;

xom ipak jipsligining pasayishi hamda uning namligini kamaytirish bilan ip uzilishlarini kamayish qonuniyatlarini Eyler formulasidan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan;

xom ipakni olti qirrali charxga o‘rashda chiziqli tezligini vaqt bilan bog‘ligini e’tiborga olgan holda unung yopishqoligini kamaytirish imkonini beruvchi parametrlarning qiymatlari aniqlangan;

yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarish uchun texnologik rejimlar ishlab chiqish asosida pillalarni sifatli saralash, pishirish hamda chuvish texnologiyasi takomillashtirilgan;

pillalarni yig‘ib olish jarayonida hosil bo‘ladigan birlamchi los tolalarini mayda va yirik chiqindilardan tozalash jarayonini, tolali chiqindilarning sinflanishini takomillashtirish asosida suyuq gulqog‘oz uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, xom ipak ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida ilmiy tadqiqot ishlari kompleks ravishda ishlab chiqilgan;

tadqiqot ishidagi Oltin vodiy-2 duragayining yetishtirilishi va pillalarning texnologik, fizik, mexanik xususiyatlari yuqori ekanligi aniqlangan;

Xitoy urug‘idan yetishtirilgan pillalarga nisbatan Oltin vodiy-2 duragayining texnologik ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlangan;

orra chuvish avtomatining zonalaridagi ipning tarangliklari nazariy hisoblash asosida chiziqiy zichlikni nazorat qilish asoslangan;

pillalardan chiqqan birlamchi los tolalaridan gulqog‘oz uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada shakllantirilgan ma’lumotlar statistik ishlov orqali aniqlanganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari parallel tajriba natijalariga mos kelishi,

pillalardan ipak massasini ajratib olishda nazariy va amaliy modellarining o‘zaro yaqinliklari, ip sifatiga ta’sir qiluvchi omillarning statistik tahlil qilinganligi hamda zamonoviy metodlarning qo‘llanilishi, o‘tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishi natijalarini ilmiy ahamiyati turli mavsumda yetishtirilgan mahalliy Oltin vodiy-2 duragay pillalarini chuvishga tayyorlashning optimal rejimlarini ishlab chiqilganligi, xom ipak shakllanishi jarayonida chirmovni hosil qiluvchi roliklar tizimining bir-biriga bog‘liqlik matematik modeli tuzilganligi, uning asosida xom ipak shakllanishining parametrlari asoslanganligi, chuvilayotgan pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish uchun rejimlarini nazariy asoslangan texnologiyasining takomillashtirilganligi, birlamchi losni qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilganligi, zamonaviy dastgoh parametrlarining ta’sir etish qonuniyatlarini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati mahalliy zotlardan yuqori sifatli xom ipak olish usullari yaratilgan, ipak mahsulotlari assortimentlari kengaytirilgan, zamonaviy dastgohning texnologik parametrlari o‘rganilib, ishlab chiqarishga joriy etilgan va korxona samaradorligini oshirishga erishilgan. Mahalliy duragay “Oltin vodiy-2” pillalaridan standartning “3A” sinfiga mos xom ipak ishlab chiqarish mumkinligi isbotlandi. Xom ipakni qayta o‘rash jarayonidagi ipni yig‘ib oluvchi charx takomillashtirilgan, yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarish uchun texnologik rejimlari ilmiy asoslanganligi va nazariy tadqiqotlar natijasida pilla chuvish texnologiyasi takomillashtirilganligi, pillalardan chiqqan birlamchi los tolalaridan gulqog‘oz uchun xom ashyo tayyorlash texnologiyasining yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mahalliy pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish va losini qayta ishlash texnologiyalarini asoslash bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxonalaridan, jumladan, Xorazm viloyatining “XORAZM IPAGI” mas’uliyati cheklangan jamiyatida, Samarqand viloyatining “SAMARQAND SILK OA” MChJda joriy qilingan (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2025-yil 14-oktyabrdagi 4-2/1809-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada korxonalarda davlat standarti talablari bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan “2A” sinfiga mos xom ipak sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlari yaxshilanib, davlat standarti talablari bo‘yicha Oltin Vodiy-2 duragayi birinchi mavsum va Oltin vodiy-2 duragayi ikkinchi mavsum pillalaridan “3A” sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati yaratilgan. Ishlab chiqilgan chuvishning rasional rejimlari “XORAZM IPAGI” korxonasida joriy etilgan. Natijada xom ipakning nisbiy uzilish kuchini 11,3 cN/tex ga, xom ipakning chiqishini 9 % oshirish imkoniga erishilgan;

yangi turdagи suyuq gulqog‘ozi uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi Toshkent viloyatida joylashgan “ADRAS DÉCOR GROUP” MChJ korxonasida joriy etildi. (“O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2025-yil 14-oktyabrdagi 4-2/1809-sonli ma‘lumotnomasi) Natijada yirik va mayda tolali ipak chiqindilaridan birinchi marta sanoatda suyuq gulqog‘oz olishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 15 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-texnik hamda ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola nashr etilgan, shundan 1 ta maqola Scopus bazasida indeksatsiya qilingan jurnalda chop etilgan. 2 ta DGU patenti olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 215 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnika-texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish, tadqiqot natijalari bo'yicha nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Tut ipak qurti pillasini tayyorlash va uni qayta ishlashning holati**" deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbalarining tahlili yoritilgan bo'lib, unda O'zbekistonda mahalliy zot va duragaylar seleksiyasining holati hamda istiqbollari, pilla yetishtirishning innovatsion usullari kabi masalalarga e'tibor qaratildi. Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida pillani dastlabki ishslash jarayonini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlaridan foydalanib, xom ipak ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, tolali chiqindilarni unifikatsiyasi va foydalanish holati yo'nalishidagi ilmiy ishlarni asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan. Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlar, chop etilgan ilmiy maqolalar, patentlar va internet tarmoqlaridan olingan ma'lumotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, pilla yetishtirish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar va ularni utilizatsiya qilish, ipak tolali chiqindilardan foydalanishning yangi usullari, parametrlari va fizik-mexanik xususiyatlarining tadqiqoti tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar to'liq, yetarli darajada olib borilmaganligi dissertasiya ishining maqsad va vazifalarini aniqlab beradi.

Tahlil etilgan natijalar asosida pillani dastlabki ishslash jarayonini takomillashtirish, xom ipak ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, tolali chiqindilarni unifikatsiyasi va foydalanish hamda pilla yetishtirish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar, ularni utilizatsiya qilish, ipak tolali chiqindilardan foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqish zarurligi aniqlangan.


Dissertatsiyaning "**Turli mavsumlarda yetishtirilgan mahalliy duragay pillalarning dastlabki ishslash rejimlarini ishlab chiqish**" deb nomlangan ikkinchi bobida pilla yetishtirishning yangi usullarini yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari o'r ganildi.

2023-2024-yillarda Qashqadaryo viloyati fermer xo‘jalik qurtxonasida birinchi va ikkinchi mavsumda qurt boqish amaliyoti o‘tkazildi. Hududning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda mavsumlar muddatlari quyidagicha belgilandi: I mavsum qurt boqish aprel oyiga to‘g‘ri keldi, II mavsum qurt boqish may oyiga to‘g‘ri keldi. Ushbu muddatlarga qarab, fermer xo‘jaligi tut maydonlarida barg kesish grafiklari ham tuzib chiqilgan. Birinchi va ikkinchi mavsumda ipak qurtining Oltin vodiy-2 va Zarafshon-2 duragayi boqildi.


Ipak qurtini boqish amaliyotida qurtxona havosi harorati va nisbiy namligi katta rol o‘ynaydi. Chunki havo harorati va namligi ipak qurtining o‘sishi va yetilishiga katta ta’sir etadi. Misol uchun, agar qurtxonaning havo harorati  $+15^{\circ}\text{C}$  bo‘lsa, ipak qurtining qurtlik davri 60 kunni; agar  $+30^{\circ}\text{C}$  bo‘lsa, 21 kunni tashkil etadi. Lekin havo harorati  $+30^{\circ}\text{C}$  dan ortiq bo‘lib, nisbiy namligi past bo‘lsa, ipak qurtidagi modda alashinushi buziladi va pillalar mayda bo‘lib qoladi. Buning natijasida ipak qurtini birinchi mavsumda boqishga nisbatan ikkinchi mavsumda boqish vaqtida havo haroratinining yuqoriligi va nisbiy namlikning past bo‘lishi hamda bular ipak qurtining rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishini hisobga olgan holda, tadqiqot vaqtida optimal metrologik sharoitni ta’minlash maqsadida xonadagi havo namligini oshirish hisobiga havo harorati ko‘tarilishining oldi olindi. Buning uchun qurtxona sathiga har 1-1,5 soatda suv sepib turildi. So‘kichaklar ustiga esa 60-65,5 sm balandlikda sovuq suvda namlangan choyshab tutildi. Shunday qilib, qurtxona havo harorati va nisbiy namligi agrotexnika talablari darajasida ushlab turildi. 1-, 2-, 3-, 4-rasmlarda ipak qurtini boqishda ularning yoshlari bo‘yicha tavsiya etilgan havo namligi va harorati ko‘rsatkichlari keltirilgan.




1-rasm. Oltin vodiy-2 birinchi mavsumda qurtxona havo harorati va nisbiy namligi tavsiya qilingan ko‘rsatkichlari, ularning navli pillalar ulushiga ta’siri



2-rasm. Oltin vodiy-2 ikkinchi mavsumda qurtxona havo harorati va nisbiy namligi tavsiya qilingan ko‘rsatkichlari, ularning navli pillalar ulushiga ta’siri



3-rasm. Zarafshon-2 birinchi mavsumda qurtxona havo harorati va nisbiy namligi tavsiya qilingan ko'rsatkichlari, ularning navli pillalar ulushiga ta'siri



4-rasm. Zarafshon-2 ikkinchi mavsumda qurtxona havo harorati va nisbiy namligi tavsiya qilingan ko'rsatkichlari, ularning navli pillalar ulushiga ta'siri

Har bir mavsumiy boqishdan keyin tirik pillalarning barcha ko'rsatkichlari institutning laboratoriyasida, mavjud uslublarda aniqlab borildi. Institutning laboratoriyasida ishlab chiqilgan uslubga asosan dastlab pillalar tashqi ko'rinishi va qattiqligi bo'yicha saralab olindi, keyin esa o'lchamlari bo'yicha kalibrlandi. Pillalar o'lchamlari bo'yicha 4 ta kalibrga bo'linadi: mayda (14,0-16,0 mm), o'rtacha (16,0-19,0 mm), yirik (19,0-22,0 mm) va o'ta yirik (23,0 mm va undan katta) pillalar. Undan keyin navli pillalarning ipakchanligi, qobiq qattiqligi, qobiq qalinligi va pilla qobig'ining boshqa ko'rsatkichlari ham aniqlandi.

Shundan keyin, tirik pilla namunalarining asosiy texnologik ko'rsatkichlari UzNIISHP tizimidagi pillalarni yakka chuvish laboratoriya dastgohida aniqlandi. Ushbu usulda pillalarning quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanadi:

- pilla ipining chiziqli zichligi, teks va metrik nomer;
- pilla iplarining uzunligi bo'yicha ingichkalashib borish koeffisiyenti;
- pilla ipining umumiyligi va birinchi uzelishgacha bo'lgan uzunliklari, metr;
- ipak mahsulotlari va g'umbak chiqishi, %;
- pillalarning solishtirma sarfi.



Birinchi va ikkinchi mavsumlarda yetishtirilgan Oltin vodiy-2 va Zarafshon-2 duragay tirik pillalarini kalibrash, saralash va texnologik ko'rsatkichlari hamda ulardan ipak mahsulotlarining chiqishlarini aniqlash bo'yicha institutning laboratoriyasida tadqiqot sinovlari o'tkazildi. Tajriba sinov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

## 1-jadval

**Birinchi va ikkinchi mavsumda yetishtirilgan Oltin vodiy-2 va Zarafshon-2 duragay tirik pillalarining kalibrash, saralash va texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun o‘tkazilgan sinovlar natijalari**

Pilla namunalarining nomlanishi	Pillalarni saralash natijalari, o'rtachasi, %								Pillalar vazni, g	Kalibrlash natijalari, o'rtachasi, %				Chiziqli zichligi, o'rtacha si	Iplarining uzunligi, o'rtachasi, m			
	Navli	Chandiqli	Atlasli	Dog' li	O' tkir uch	Yupqa devon	Yupqa qutbi	Boshqatari		Mayda	O' rtachi	Yirik	O' ta yiri	Teks	Metric			
Oltin vodiy-2 duragayi birinchi mavsum	87,91	4,12	0,2	0,62	4,11	2,37	0,62	-	12,09	1,425	-	76,76	4,90	18,34	0,25	4086	829,0	988,5
Oltin vodiy-2 duragayi ikkinchi mavsum	60,96	4,35	1,3	7,30	7,90	16,37	1,75	-	39,04	1,375	20	73,95	6,05	-	0,28	3575	837,5	933,5
Zarafshon-2 duragayi birinchi mavsum	83,15	2,63	1,2	5,02	4,40	3,15	3,40	0,25	19,85	1,425	1,6	71,78	4,28	21,94	0,27	3701	831,3	939,5
Zarafshon-2 duragayi ikkinchi mavsum	59,57	1,66	1,0	10,75	7,20	17,51	2,24	-	40,43	1,475	21,24	72,20	6,56	-	0,24	4159	831,2	927,0

5-rasmda birinchi va ikkinchi mavsumda yetishtirilgan Oltin vodiy-2 va Zarafshon-2 duragay tirik pillalarini kalibrlash, saralash va texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun o'tkazilgan sinovlar natijalarining eng samarali namunasini aniqlash uchun kompleks baholash diagrammasi va qiymatlarining qiyosiy taqqoslash gistogrammasi keltirilgan.



**5-rasm. Birinchi va ikkinchi mavsumda yetishtirilgan Oltin vodiy-2 va Zarafshon-2 duragay tirik pillalarining kompleks baholash (a) diagrammasi va (b) gistogrammasi**

Bizning tadqiqot ishimizda qiyoslash uchun 2023/2024-yil hosili, Oltin vodiy-2 duragayi birinchi mavsum pillalari va Oltin vodiy-2 duragayi ikkinchi mavsum pillalaridan, yetishtirilgan o‘rtalikalibrdagi pillalar tanlab olindi. Texnologik tadqiqotlar “UzNIISHP” tizimidagi pillalarni yakka tartibda chuvish dastgohida TTYeSI “Ipak texnologiyasi” kafedrasи laboratoriyasida o‘tkazildi. Ipak mahsulotlarining chiqishi va

boshqa texnologik ko'rsatkichlar texnologik xarita talablariga muvofiq 30 marta tajriba-sinov o'tkazish orqali aniqlandi.

Mahalliy Oltin vodiy-2 birinchi va ikkinchi mavsum duragay pillalarining chiziqli o'lchamlari bo'yicha taqsimlanishi o'r ganilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragay pillalarining uzunligi, yarim sharlar kengligi va bel qismining kengligi bo'yicha o'rtacha qiymatlari bir-biridan katta farq qiladi. Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi 32 mm va undan yuqori bo'lgan pilla uzunligi 76,7 foizni tashkil qildi. Ikkinci mavsum Oltin vodiy-2 duragayida esa 28 mm dan 33 mm gacha pilla uzunligi 73,9 foizni tashkil qildi. Mahalliy sharoitda parvarishlangan birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragay pillalarining uzunligi, kalibri bo'yicha bir xilligi ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragay pillalarnikiga qaraganda 2,8 foiz oshdi. Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragay pillalarida o'rtacha kalibrda qaraganda 2,8 foiz oshdi. Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragay pillalarida o'rtacha kalibrda qaraganda 2,8 foiz oshdi. Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragay pillalarida o'rtacha kalibrda qaraganda 2,8 foiz oshdi.

## 2-jadval

### Pilla duragaylarining geometrik ko'rsatkichlari

№	Pilla duragaylari	Pilla uzunligi, mm D	Pilla qismlari diametrleri, mm			$d_{\text{yp}} = \frac{d_{\text{bosh}} + d_{\text{tag}}}{2}$	Kalibr	Ingichkalanish koeffitsenti,Si	Belchanlik koeffitsenti,Sb	Pillani shakli
			d <sub>bosh</sub>	d <sub>tag</sub>	d <sub>bel</sub>					
1	Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi	32	18,1	19,1	19,1	19	o'rta	1,7	0,9	oval
2	Ikkinci mavsum Oltin vodiy-2 duragayi	29,9	15,7	14,9	16,2	15	mayda	1,9	0,9	oval

Olingan natijalar yangi mahalliy birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragaylaridan yetishtirilgan pillalarga dastlabki ishlov berish, bug'lash, chuvish uchun yangi rejimlarni tanlash zarurligini ko'rsatadi.

Pilla massasi ikkita tashkil etuvchi qobiq va g'umbak massasidan iborat. G'umbak massasining kamayishi bilan pilla qobig'inining foiz nisbati qurt o'rash jarayonida kattalashadi, binobarin, bunday pillalarda ipakdorlik miqdori yuqori bo'ladi.

Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalar massasining o'rtacha qiymati ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalaridan katta bo'lib, 0,703 g ni tashkil qildi.

O'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalari qobig'inining massasi 0,367 g ni tashkil etadigan bo'lsa, bu birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalariga nisbatan deyarli 10% ga kam ekanligi aniqlandi.

## 3-jadval

### Pillalarning texnologik xususiyatlari

№	Ko'rsatkichlar	Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi	Ikkinci mavsum Oltin vodiy-2 duragayi	Xitoy duragayi
1	Pillardan xom ipak chiqishi, %	45,32	40,65	44,68
2	Pilla losi, %	3,42	4,20	3,15

<b>3</b>	Qaznoq po'sti (plenka), %	3	4,35	3,17
<b>4</b>	G'umbak, %	47,20	47,34	47,17
<b>5</b>	Ipakdorligi, %	51,74	49,2	51,0
<b>6</b>	Chuviluvchanligi, %	86,40	82,50	84,60
<b>7</b>	Pilla ipining umumiy uzunligi, m	1400	1250	1150
<b>8</b>	Uzluksiz chuvilish uzunligi, m	939	837	780
<b>9</b>	Pilla ipining chiziqli zichligi, teks	0,25	0,28	0,24

Qobiqning chuvaluvchanligi birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalarida 86,4% ni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalarida 82,5% ga teng ko'rsatkichga ega bo'ldi. Shuningdek, Xitoy duragayi pillari 84,6% ni ko'rsatdi. Ma'lumki, xom ipak ishlab chiqarishda pillalarni chuvishning asosiy maqsadi qimmatbaho xomashyodan ratsional foydalanishdir.

Mahalliy pillalarda pilla qobig'i bel qismining mustahkamlik ko'rsatkichi yuqori va quyi yarim sharga nisbatan harorat hamda namlik rejimining ko'proq ta'sir etish zaruriyat ekanligidan dalolat berib turibdi, bu esa pillalarning butun yuzasi bo'yicha notejis bug'lanishiga olib keladi. Pillalarning bir tekis bug'lanishi natijasida ishlab chiqarilayotgan xom ipakning nuqsonlari bo'yicha sifati ortadi.

Chuvish bo'yicha qiyosiy texnologik sinovlarni o'tkazish uchun birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi pillalarining o'rtacha massasi yagona massaga keltirildi. Chuvish uchun o'rta kalibrdag'i pillalar tanlandi. Pillani chuvishdagi ipakdorligini aniqlash uchun pilla qobig'idan olingan ipak mahsulotlarining hosil bo'lgan massalari yig'indisidan topildi.

Mahalliy sharoitda yetishtirilgan birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi hamda Xitoy duragayi pillalarining yakka chuvishdan olingan natijalari solishtirma tarzida keltirilgan. Jadvaldan ko'rish mumkinki, mahalliy sharoitda yetishtirilgan Oltin vodiy-2 duragayi pillalarining ipakdorligi 51,74 va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi 49,2, Xitoy duragayi 51,0% ni; chuviluvchanligi Oltin vodiy-2 duragayi 86,4 va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi 82,5 hamda Xitoy duragayi 84,60% ni; pilla ipining umumiy uzunligi: Oltin vodiy-2 duragayi 1400 va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi 1250 hamda Xitoy duragayi 1150 m ni; pilla ipining uzluksiz chuvilish uzunligi Oltin vodiy-2 duragayi 939 va ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi 837 hamda Xitoy duragayi 780 m ni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda tut ipak qurti pillsini yetishtirish va ularni qayta ishlashning mavjud texnologiyasi bo'yicha yig'ib olingan tirik pillalarga birinchi navbatda dastlabki ishlov beriladi. Pillalarni dastlabki ishlash deganda: ularni qabul qilish, dastlabki saralash va losdan tozalash, g'umbakni jonsizlantirish, pillalarni quritish va pilla partiyalarini yiriklantirish jarayonlari tushuniladi. Pillalarni dastlabki ishlash jarayonlari 13 kundan 22 kungacha davom etishi mumkin. Bu kunlar ichida pilla qabul qilish punktlari (PQQP), pillalarga dastlabki ishlov berish bazalari (PDIBB) tun-u kun kuchaytirilgan rejimda ishlaydi.

Tajriba Oltin vodiy-2 duragay urug'laridan yetishtirilgan tirik pillalar maxsus sovutkichlarda +2 °C, +4 °C, +8 °C haroratlarda saqlandi. 10, 20 va 30 kunlik saqlash

muddatlarida ularning og‘irliklari o‘lchab borildi va ularning natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4 -jadval

##### Past harorat va saqlash muddatini tirik pilla og‘irligiga ta’siri

Pilla namunalarining nomlanishi	Tirik pillaning boshlang‘ich vazni, g	Tirik pillaning o‘rtacha og‘irligi, g								
		10 kundan keyin			20 kundan keyin			30 kundan keyin		
		+2 °C	+4 °C	+8 °C	+2 °C	+4 °C	+8 °C	+2 °C	+4 °C	+8 °C
Birinchi mavsum Oltin vodiy-2	1,505	1,375	1,354	1,386	1,33	1,326	1,358	1,25	1,31	1,3
Ikkinci mavsum Oltin vodiy-2	1,360	1,35	1,355	1,369	1,325	1,33	1,348	1,245	1,255	1,260

Tadqiqot natijalarining tahlilidan ko‘rinib turibdiki, tirik pillalarning og‘irliklari, ularni past haroratda saqlash davri ko‘paygan sari kamayib boradi. Tirik pillalar vaznining kamayishi, ayniqsa, birinchi o‘n kunlikda yuqori bo‘ladi. Misol uchun, 1-boquv pillalarini 4 °Cda saqlanganda ularning vazni 10 kundan keyin boshlang‘ich vazniga nisbatan 10,03 % ga kamaygan bo‘lsa, 30 kundan keyin boshlang‘ich vazniga nisbatan 13,62 % ga kamaygan. Bunday holat boshqa takroriy boquv pillalarini saqlashda kuzatiladi. Buning asosiy sababi, ipak qurtlari to‘la to‘yingandan keyin oziqlanishni to‘xtatib, birin-ketin 3-4 kun pilla o‘raydi va g‘umbakka aylanadi. Ipak qurti pilla o‘rashni boshlagandan 7-9 kun o‘tgandan keyin pillalar dastalardan terib olinib, pilla qabul qilish punktlariga topshiriladi. Ipak qurtining g‘umbaklik davri 15-22 kunni tashkil etadi. Demak, ipak qurti to‘la to‘yingandan keyin, g‘umbaklik davrining oxirigacha 22-31 kun atrofida yig‘ilgan ozuqa zahiralari hisobiga yashaydi. Shu sababdan, uning vazni va namligi kundan kunga kamayib boradi.

#### 5-jadval

##### Past harorat va saqlash muddatini tirik pillaning ipakchanligiga ta’siri

Pilla namunalarining nomlanishi	Pillaning dastdabki ipakchanligi, %	Tirik pillaning o‘rtacha ipakchanligi, %								
		10 kundan keyin			20 kundan keyin			30 kundan keyin		
		+2°C	+4°C	+8°C	+2°C	+4°C	+8°C	+2°C	+4°C	+8°C
Birinchi mavsum Oltin vodiy-2	21,9	22,95	23,5	22,8	23,25	23,75	23,05	23,65	23,95	23,32
Ikkinci mavsum Oltin vodiy-2	20,8	21,2	21,75	21,3	21,45	21,9	21,55	21,65	21,05	21,8

Yuqorida berilgan 4-, 5- va quyidagi 6-jadvallarda keltirilgan tadqiqot natijalarining tahlili takroriy boquv asosida yetishtirilgan tirik pillalarni saqlashda optimal saqlash harorati deb +4 °C haroratni tavsiya etish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu harorat ipak qurti urug‘larini saqlashda ham qo‘llaniladi. Demak, tirik pillalarni saqlashda ushbu optimal haroratni qo‘llanilishi pilla g‘umbagidagi diapauza davrining davomiyligini ta’minlaydi hamda tirik pillalarni 6 oy va undan ortiq saqlashga imkoniyat beradi.

## 6-jadval

**Birinchi va ikkinchi mavsumda yetishtirilgan tirik pillalarning texnologik ko‘rsatkichlariga saqlash haroratlarining ta’siri**

Saqlash harorati	Tirik pilla vazni, g	Ipakchanligi, %	Chiziqli zichligi, teks	Uzluksiz chuvilish uzunligi	Umumiy uzunligi	Xom ipak chiqishi, %	Pilla losi, %	Qaznoq, qobig‘i, %	Jami ipak mahsulotlari	Eruvchi moddalar, %	Pilla solishirma sarfi, kg/kg
<b>Birinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi</b>											
2°C	1,378	23,65	0,275	835,0	965,0	19,75	2,05	1,75	23,55	1,76	5,05
4°C	1,372	23,95	0,260	875,0	950,0	23,25	1,95	1,55	26,75	1,50	4,30
8°C	1,375	23,32	0,255	825,0	960,0	20,80	2,15	1,85	24,80	1,78	4,80
<b>Ikkinchi mavsum Oltin vodiy-2 duragayi</b>											
2°C	1,350	22,65	0,275	775,0	910,0	18,34	1,70	1,50	21,54	1,64	5,45
4°C	1,340	23,05	0,265	825,0	925,0	18,51	1,35	1,25	21,11	1,30	5,40
8°C	1,355	22,80	0,270	785,0	950,0	17,69	1,40	1,30	20,39	1,70	5,65

Dissertatsiyaning “**Yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida xom ipak sifatiga ta’sir etuvchi omillar; xom ipakning texnologik xususiyatlariga pillalarni saralash jarayonining ta’siri; yuqori sifatli xom ipak olish uchun pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish usullarini takomillashtirish; pilla chuvish avtomatlarida xom ipak olish rejimini ishlab chiqish; pilla chuvish avtomatida tirik pillalar uchun optimal chuvish tezligini o’rnatish kabi tadqiqotlar nazariy va amaliy jihatdan o’rganilgan.


Qobiq va g‘umbakning zichligidan ( $1,2 \text{ kg/dm}^2$  gacha) yuqori, lekin pilla ichidagi havo quruq pillalarning yuqori suzishga ega ekanligi sababli, uni o’rtacha zichligini  $\rho_k$  suvning zichligidan ancha pasaytiradi ( $\rho_s \ll 1$ ).

Pillalarni pishirishda pilla qobig‘idagi seritsin qisman eriydi va pilla ichidagi havoni siqib chiqarib, pilla ichiga suv kiradi. Shunga bog‘liq holda, birlikdan oshuvchi kattalik me’yoriga intilib, tola va g‘umbakning zichligi birdan katta bo‘lganligi uchun pillaning hajm zichligi ortadi.

Suvli muhitga cho‘ktirilgan pilla tashqi kuchlar bo‘lmaganligi sababli Arximed kuchi itaruvchi og‘irlik kuchi ta’siri ostida muvozanat holatida bo‘ladi.

Pilla yuzasidan chuvilayotgan qayishqoq ipning charxga o‘ralish jarayonini o‘rganamiz. Bunda qovushqoq muhitga cho‘ktirilgan va u yerda vertikal yuqoriga harakatni yuzaga keltiradi. (6-rasm).

Pilla yuzasidan ip chiqishini uzluksiz deb hisoblasak, pilla bilan ip kontakti qayishqoq element orqali amalga oshiriladi. Elementning yuqori uchi  $x = x_1(t)$  qonun bo‘yicha harakatlanadi va  $x_0 = x_0(t)$  qonun bo‘yicha charx bilan harakatlanadigan, deformatsiyalanadigan ip kesmasi bilan bog‘langan. Deformatsiyalanuvchi kesmani qayishqoq element qattiqlik koeffitsiyenti  $k_0 = EF/l$  ( $E$  - ipning Yunga moduli,  $F$ ,



**6-rasm. Pillada tashqi va qayishqoq kuchlar harakatining sxemasi**

$l$  – ko‘ndalang kesim yuzasi va ipning uzunligi) bilan almashtiramiz. Pilla va ip yuzasidan chiquvchi qattqlikni bog‘liqlik koeffitsiyenti  $k_1$  orqali belgilaymiz. Ikki qayishqoq elementlarning ulangan nuqtalari muvozanat tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$[k_1(x_1(t) - h(t)] - k_0[x_0(t) - x_1(t)] = 0 \quad (1)$$

Bu yerdan qayishqoq element uchini joylashishini aniqlaymiz.

$$x_1 = \frac{k_0}{k_0 + k_1} x_0(t) \quad (2)$$

Pilla bilan ipning qayishqoq bog‘liqlik koeffitsiyenti  $k_1$  uning suv muhitida ho‘llanish darajasiga bog‘liq va pilla yuzasidan ipning chiqishini mustahkamlash darajasini ko‘rsatadi. Ipni yechish jarayonida uzlusiz ipning yechilishi yuzaga keladi va shuning uchun bu koeffitsiyent umumiyl holatda pillaning quyi uchi o‘raluvchi va joylashish farqining funksiyasi hisoblanadi. Bu funksiyaning ko‘rinishi tajriba yo‘li bilan aniqlanadi. Vazifani osonlashtirish uchun ipning bog‘liqlik kuchi pilla yuzasi bilan vaqt davomida davriy ravishda o‘zgaradi, ya’ni vaqtning boshlang‘ich momentida bu kuch maksimal qiymatga ega bo‘ladi. Keyin esa seritsinning erishi natijasida pilla yuzasidan ipning uzlusiz chiqish jarayoni yuzaga keladi va qarshilik vaqt momentida  $t=t_{pr}$  minimumgacha  $k_1=k_{min}$  kamayadi hamda yana maksimumgacha oshadi. Bunday vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan koeffitsiyent  $k_1$  qonuniyatni, masalan, quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$k_1 = k_1(t) = (k_{max} - k_{min})(1 + \cos\pi t / t_{np}) / 2 + k_{min} \quad (3)$$

Bu yerda  $k_1$ ,  $k_2$  va  $t_{pr}$  kattaliklarni sinov yo‘li bilan aniqlash mumkin.

O‘ralish momenti boshlanishidan avval suyuq muhitga cho‘ktirilgan pilla statik muvozanat holatida bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Pillani ellipsoid aylanish holatida deb hisoblab, suvli muhitda pillaning gorizontal holatini ko‘rib chiqamiz va uning yuqori nuqtasi  $M_1$  suv yuzasidan chuqurlikda  $h_0$  joylashadi. (6-rasm).

Pillaga vazn kuchi  $mg$  ( $m$  -pilla vazni), itaruvchi kuch  $P$  va pilla yuzasidan ipakni yechib olish natijasida pilla uchi bilan pilla qayishqoq kontakt kuchi hamda pilla harakati tezligiga proporsional bo‘lgan qovushqoqlik ishqalanish kuchi ta’sir qiladi. Pilla markazi joylashishini  $h = h(t)$  deb belgilaymiz.

U holda suvli muhitda pilla harakati tenglamasi yuqoridagi kuchlarni inobatga olgan holda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$m\ddot{h} = k_1(t) \frac{k_0}{k_0 + k_1(t)} [x_0(t) - h] - S(h)\mu\dot{h} - mg + P \quad (4)$$

Har bir vaqt momentida pilla vazni kuchi va itaruvchi kuch Arximed qonuniga muvofiq muvozanatlanadi, ya’ni tenglik bajariladi.

$$mg = P = \rho_j gV = 2\rho_j g [2\pi R_1^2 R / 3 + \pi z_1^2 (R_1 - z_0) + \pi R_1^2 (R - z_1 - \frac{R^3 - z_1^3}{3R^2})] \quad (5)$$

(5) formula ellipsoid tashkil etuvchilari aylanishi modellashayotgan vazni ma’lum bo‘lgan holatda pillaning geometrik parametrлari orasida bog‘liqlik o‘rnatadi.

(4) tenglamadagi pillaning ho‘llanish yuzasi  $S(h)$  pillaning suvli muhitdagi holatiga bog‘liq va katta bo‘lmagan chuqurlikka cho‘ktirishni quyidagi formula orqali aniqlaymiz.

$$0 < h < h_0 \text{ bo‘lganda} \quad QS = 2S_0 \quad (6)$$

$$h_0 < h < 2R_1 - z_0 + h_0 \text{ bo'lganda } S = S_0(0) + S_0(h - h_0) \quad (7)$$

$$2R_1 - z_0 + h_0 < h < 4R_1 - 2z_0 + h_0 \text{ bo'lganda}$$

$$S = S_0(0) - S_0(4R_1 - 2z_0 - h + h_0) \quad (8)$$

Ipning charxga o'ralishida ipning maksimal tezligi ip ko'pburchakning qirralari bilan to'qnashganda, ko'pburchakning tomonlari bilan to'qnashganda esa eng kam tezlikka erishadi, deb qabul qilamiz. Bunda olti qirrali yuzada tezlikning taqsimlanishi notejis bo'ladi va bu vaqt davomida chiqayotgan ipning tezligi davriy ravishda o'zgarishiga olib keladi.  $t = 0$  vaqt momentida  $OA_0B_0$  teng tomonli uchburchakning  $A_0$  cho'qqisida  $OA_0 = OB_0 = R_b$ ,  $\angle O = 2\beta$  bo'lganda, ipning shiddatli tezligini aniqlaymiz (7-rasm).  $t$  vaqt momentida uchburchak  $OA_0$  burchak  $\omega t$  ( $\omega = \pi n/30$ ,  $n$  - charxning aylanish soni  $ayl/min$ ) bo'ylab buriladi. Buning uchun 7-rasmdan vaqt momenti  $0 < t < \beta/\omega$  uchun nuqta  $A_0$  tezligini topamiz.

$$v = v_1 = v_0 \cos \omega t \quad (9)$$

Vaqt momenti uchun  $\beta/\omega < t < 3\beta/\omega$

$$v = v_2 = v_0 \cos(2\beta - \omega t) \text{ ga erishamiz.} \quad (10)$$

Keyinchalik bu jarayon takrorlanadi va  $A_0$  nuqtadagi ipning tezligi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi.

$$v = v_3 = v_0 \cos(4\beta - \omega t) \text{ bunda } 3\beta/\omega < t < 4\beta/\omega,$$

$$v = v_4 = v_0 \cos(\omega t - 4\beta) \text{ bunda}$$


$$4\beta/\omega < t < 5\beta/\omega, \dots \quad (11)$$

$$v = v_{n-1} = v_0 \cos(n\beta - \omega t) \text{ bunda } (n-1)\beta/\omega < t < n\beta/\omega,$$

$$v = v_n = v_0 \cos(n\beta - \omega t) \text{ bunda}$$

$$n\beta/\omega < t < (n+1)\beta/\omega, n = 4, 5, 6, \dots, \quad (12)$$

**7-rasm. Ko'pburchak yuzasi bo'yicha  $A_0$  ip o'ralishi harakatining kinematik sxemasi**



**8-rasm. Vaqtga bog'liq holda olti qirrali charx chiziqli tezligining o'zgarishi**

8-rasmida olti qirrali charx chiziqli tezligining vaqt bilan bog'liqlik grafigi keltirilgan. 1 to'g'ri chiziq ip o'ralishi o'rtacha tezligiga mos keladi. Hisoblarda


$$R_\delta = 0.191 \text{ m}, \beta = 30^\circ, v_0 = \frac{5}{6} \text{ m/c}, \omega = 8.72 \text{ c}^{-1} \text{ qabul qilingan.}$$

Hisoblar vaqt momenti uchun charxning to'liq bir marta aylanishiga mos holda vaqt  $t_0 = 2\pi/\omega = 0.72 \text{ c}$ , o'rtacha tezlik  $v_c = 1.552 \text{ m/c}$  deb qabul qilinib, olib borilgan.

(12) tenglama (13) hisobga olgan holda quyidagi ko‘rinishga keltiriladi.

$$m\ddot{h} = k_1(t) \left[ \frac{k_0 x_0(t)}{k_0 + k_1(t)} - h \right] - S(h)\mu h \quad (13)$$

Tenglama (14) boshlang‘ich shartlar  $h(0) = 0$ ,  $\dot{h}(0) = 0$  bilan raqamli integrallanadi. Hisoblar geometrik tenglikni  $4R_1 - 2z_0 = 0,02\text{m}$  bajarish va quyidagi parametr qiymatlari  $E = 10^8 \text{ Pa}$ ,  $F = 2 \cdot 10^{-8} \text{ m}^2$ ,  $m = 0.001 \text{ kg}$ ,  $v_0 = 100 \text{ m/min}$ ,  $\mu = 0.0035 \text{ Pa} \cdot \text{c}$  (suv muhiti).  $l = 1 \text{ m}$ ,  $R_b = 0.191 \text{ m}$ ,  $R = 0.007 \text{ m}$ ,  $h_0 = 0.01 \text{ m}$  orqali bajarildi.



9-rasm. Pilla yuqori markaziga joylashishining ellipslar markazlariga yaqinlashtirish qiymatlari  $z_0 = 0,005 \text{ m}$ ,  $R_1 = 0,0075 \text{ m}$  uchun vaqt va davomiyligi  $t_{pr} = 2 \text{ sek}$  bilan bog‘liqlik grafigi

10-rasm. Pilla yuqori markaziga joylashishining ellipslar markazlariga yaqinlashtirish qiymatlari  $z_0 = 0,005 \text{ m}$ ,  $R_1 = 0,0075 \text{ m}$  uchun vaqt va davomiyligi  $t_{pr} = 5 \text{ sek}$  bilan bog‘liqlik grafigi

9-, 10-rasmlarda pillani yuqoriga joylashishining turli qiymatlari  $z_0$ ,  $R_1$  va  $t_{np}$  uchun vaqt bo‘yicha bog‘liqlik grafiklari keltirilgan. Hisoblar ikki xil charx uchun olib borilgan. Bunda o‘ralayotgan ipning umumiyligi  $L = 1200 \text{ m}$  ga teng bo‘ladi. Rasmlarda olti qirrali charxning egriliklari keltirilgan va bunda o‘rtacha chiziqli tezlik  $v_c = 1.25 \text{ m/c}$  ga teng bo‘ladi.  $T = 960 \text{ cek}$  vaqt momenti uchun mos ravishda charxning 1000 marotaba aylanishiga to‘g‘ri keladi.


Grafiklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, pillaning suvli muhitdan chiqishida bog‘liqlik koeffitsiyentining o‘zgaruvchanligi sababli pilla o‘zgaruvchan amplitudali tebranma harakat qilishni boshlaydi. Pillaning harakatlanish qonuniga qayishqoqlik bog‘liqligi koeffitsiyenti pasayish davomiyligi muhim rol o‘ynaydi. Bu vaqt qiymatining oshishi bilan pillaning tebranish chastotasi kamayadi, pillaning suvli muhit tomona harakatlanishi boshlanadi.

Bu pilla tebranishining xususiyati aslida ip va pillaning qayishqoq bog‘liqlik qattiqlik koeffitsiyenti o‘zgarish chastotasiga bog‘liq. Tebranish koeffitsiyenti o‘zgarishi qisqa diapazonlarda yuqori chastotali xarakterga ega va bu diapazon ortishi bilan tebranish davr uzayishi bilan xarakterlanadi.

Pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish rejimlarini o‘rnatishda pilla qobig‘idagi seritsinning erish darajasi, qobiq xususiyatlari, jumladan, uning qalinligi va g‘ovakdorligi, pilla ipningi chiziqli zichligi, ipning chiziqli zichligining uzunasi bo‘yicha o‘zgarishi, ipning uzliksiz chuvalish uzunligi, qobiq tozaligi va donadorligi kabi ko‘rsatkichlari muhim hisoblanadi. Har bir hududda yetishtirilgan pillalarning

xususiyatlari turlicha bo‘lganligi sababli ularni bir-biriga yaqinlari aralashtirilishi va yirik partiya hosil qilinishi lozim.

Oltin vodiy-2 duragayi pillalari davlat standarti GOST 31256 – 2004 talablariga muvofiq MKK-1 markali mexanizatsiyalashgan pillalarni saralash konveyerida saralashdan o‘tkazildi. Saralash jarayonida Oltin vodiy-2 duragayi pillalaridan 1 nav pillalarning chiqishi 75% ni, 2 nav pillalarning chiqishi 15% ni, navsiz pillalarning chiqishi 10% ni tashkil qildi. Olingan durugaylar pillasi saralanib, kalibrlandi. Pillalar partiyasining 1/5 qismini saralashdan so‘ng, kerakli kalibrli pillalardan 100-110 kg vaznli namuna tanlab olindi.



**11-rasm. Oltin vodiy-2 duragayi pillalarini saralashda navlar bo‘yicha chiqishi, %**

### **Oltin vodiy-2 duragayini FY 522 pilla pishirish mashinasida ratsional rejimi**

№	O‘lchov birligi va parametrlari	Rejim	
		Bazaviy	Ratsional
1	Suv bilan namlash Vanna, °C	55	45
2	Birinchi vakum bo‘limi, °C Vakum holati	82 0,4-0,5	82 0,4-0,5
3	Bug‘ni bosimi, ati	0,1-0,4	0,1-0,4
4	Bug‘lash bo‘limi Vanna, °C Bug‘ni bosimi, mm SUV turbasida	99 5-10	98 5-10
5	Shimdirish bo‘limi, °C	75	75
6	Suv to‘ldirish bo‘limi Vanna, °C	94-75	94-74
7	Sovutish bo‘limi, °C Asosiy magestralda bug‘ning bosimi, ati Bir marta jarayon aylanib chiqish vaqt, min	48 2,5-3,0 12	45 2,5-3,0 11

Tanlangan namuna yaxshilab aralashtirilib, bug‘lash rejimini o‘rnatish uchun 10 kg, shuningdek, pilla ipining uzlucksiz chuvaluvchan uzunligini aniqlash uchun 1 kg pilla olindi. Pillalarning qolgan qismi (90-100 kg) pillalarning uchini axtarish, silkitish, chuvishning muqobil tezligini, xom ipakning o‘rtacha chiziqli zichligini, xom ipak ishlab chiqarish normasi va variatsiya koeffitsiyentini hamda uning chiqishini to‘g‘ri o‘rnatish uchun ishlatildi.

Pillalar pishishining ratsional rejimini o‘rnatish va nazorat qilishda har bir ishlab chiqarish pilla partiyasini pishirish rejimi reglamentlangan rejim asosida laboratoriya uchun mo‘ljallangan pilla pishirish FY-522 mashinasidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobu “**Pilla chuvish avtomatida pillalarni chuvishga tayyorlashning nazariy asoslari**” deb nomlangan. Bu bobda pilla chuvishdagi texnologik rejimlarni statistik ishlov berish asosida tahlil qilish, pilla chuvish avtomati zonalaridagi ip tarangliklarining nazariy hisobi, yangi pilla duragaylaridan ishlab chiqarilgan xom xususiyatlari tadqiq etilgan.

Pilla chuvish jarayonida xom ipak ipi ma’lum miqdorda ichki kuchlanishni boshdan kechiradi. Bunga ikki turdag'i kuchlanish: ipning chuvish davrdagi

tarangliklari va yig‘ilgandan keyin ipning qurishi hisobiga taranglanishi sabab bo‘ladi. Xususan, pilla qobig‘idan ipning ajralishidagi, ilgich ko‘zidan o‘tayotgandagi, ip yo‘naltiruvchi roliklar, chirmovlash, nazorat apparati, taxlagichdagi tarangliklarni ip yengib o‘tishi kerak bo‘lib, kalavaning qurishi natijasida ipning kirishishi hisobiga ham kuchlanish yuzaga keladi. Buning natijasida qayta ishlash davrida ham, kalavaga yig‘ilganda ham ip deformatsiyalanadi. Ip shakllanishi natijasida tortilayotgan ip kirishishga harakat qiladi, lekin ma’lum gabarit o‘lchamga ega bo‘lgan charx bunga yo‘l qo‘ymaydi va har bir qatlamlari qo‘srimcha kuchlanadi. Agarda ipning shakllanishidan to charxga yig‘ilgungacha bo‘lgan taranglikni inobatga olsak, u darajadagi yuqori cho‘zilish deformatsiyasini chaqirmaydi. Lekin charxga yig‘ilayotgan ip qancha taranglikda o‘ralsa, kalava qurigandan keyin esa bundan ko‘p taranglashadi.

Ipning o‘tish yo‘llaridagi tarangliklarni nazariy hisoblash sifatli xom ipak ishlab chiqarishda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Taranglikni hisoblash jarayonida roliklardagi ipning sirpanishiga qarshiligidan e’tiborga olgan holda Eyler formulasidan foydalanamiz. Avtomatning muvozanat holatida taranglik ilgichdan o‘tkaziladigan iplar majmuasida pillalarning og‘irligi va suv suyuqligining qarshilik kuchi tufayli hosil bo‘ladigan taranglikni  $T_o$  deb qabul qilamiz. Roliklardan qamrash burchaklarini 12-rasmga ko‘ra

$$\gamma_1 = \overline{A_1 B_1} \gamma_2 = \overline{A_2 B_2} \quad \gamma_3 = \overline{A_3 B_3}$$

burchaklar bilan belgilaymiz. Ularning radiuslari bir xil  $R$  bilan belgilaymiz. Ipdagi tarangliklarini har bir zona uchun 12-rasmga ko‘ra quyidagicha belgilaymiz.

AV- zonada  $T_1$ ,  $V_1 O$ -zona  $T_2$ ,  $V_2$ ,  $S_2$ -zonada  $T_3$ ,  $O A_3$ -zonada  $T_4$  va  $V_3$  nuqtadan chiqishdagi taranglikni  $T_k$  bilan belgilaymiz. Eyler formulasiga ko‘ra bu tarangliklar orasida quyidagi bog‘lanishlar o‘rinli.

$$T_2 = T_1 e^{f_0 * \gamma_1}, \quad T_3 = T_2 e^{f_0 * \gamma_2}, \quad T_k = T_4 e^{f_0 * \gamma_3} \quad (14)$$

Bu yerda  $f_0$ -ishqalanish koeffitsiyenti 12-rasmdagi belgilashdan foydalanish  $\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3$  – qamrash burchaklarini aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} \gamma_1 &= \pi - \alpha_1 + \alpha_2 \\ \gamma_2 &= \frac{\pi}{2} - \alpha_3 + \alpha_1 \\ \gamma_3 &= \frac{\pi}{2} - \alpha_4 - \alpha_5 \end{aligned} \quad (15)$$

Bu yerda  $a_2$  ( $i = T_1 5$ ) burchaklar geometrik kattaliklar bo‘lib, ular qiymatga ega bo‘lishi lozim yoki roliklar radiuslari va ularni tutashtiruvchi masofalar ma’lum bo‘lsa, geometrik bog‘lanishlar yordami bilan aniqlash mumkin.

(14) Formuladagi  $T_1, T_2$  va  $T_4$  – tarangliklarni aniqlash uchun kordinata boshi

0 nuqtada o‘rnatilgan XOU o‘qlariga kuchlarni proeksiyasi uchun muvozanat tenglamalarini tuzamiz.

Ox o‘qiga kuchlar proeksiyalari

$$T_2 \cos \alpha_2 + T_3 \cos \alpha_3 - T_4 \cos \alpha_4 = 0 \quad (16)$$

$$T_2 \sin \alpha_2 + T_3 \sin \alpha_3 - T_4 \sin \alpha_4 = T_0$$

Taranglik  $T_3$ ,  $T_2$  orqali masofani aniqlaymiz. 12-rasmga ko‘ra, Eyler formulasidan aniqlaymiz.

$$T_3 = T_1 e^{\gamma_2 * f_0} \quad (17)$$

$$T_1 = T_2 e^{-\gamma_2 * f_0} \quad (18)$$

Bu tengliklardan foydalanib (16), (19) tenglamalarni  $T_4$  va  $T_2$  ga nisbatan yozamiz.

$$T_4 = \cos \alpha_4 - b_1 T_2 = 0 \quad (19)$$

$$T_4 = \sin \alpha_4 - b_2 T_2 = T_0 \quad (20)$$

Bu yerda

$$b_1 = \cos \alpha_2 + e^{f_0(\gamma_2 - \gamma_1)} * \cos \alpha_3 \quad (21)$$

$$b_2 = \sin \alpha_4 + e^{f_0(\gamma_2 - \gamma_1)} * \sin \alpha_3 \quad (22)$$

(23) va (24) tenglamalardan  $T_4$  va  $T_2$  larni aniqlaymiz.

$$T_4 = T_0 \frac{b_1}{b_2 \cos \alpha_4 + b_1 \sin \alpha_4}; \quad (23)$$

$$T_2 = T_0 \frac{\cos \alpha_1}{b_2 \cos \alpha_4 + b_1 \sin \alpha_4}; \quad (24)$$

$T_3$  va  $T_1$  tarangliklar (17) formulalardan  $T_k$  taranglik esa

$$T_k = T_4 \exp(\gamma_3 * f_0) \quad (25)$$

formula yordamida aniqlanadi.


7-jadvalda nisbat  $T_1/T_0$  ni  $\alpha_4$  ga nisbatan qiymatlarining o‘zgarishlari keltirilgan.

### 7-jadval

#### $\alpha$ ga nisbatan $T_1/T_0$ nisbatan qiymatlari o‘zgarishi

$\alpha$ (град)	10	20	30	40	50	60	70	80	90
$T_1/T_0$	1.07	0.81	0.66	0.57	0.52	0.49	0.49	0.5	0.56
$T_2/T_0$	2.12	1.68	1.45	1.32	1.27	1.26	1.32	1.44	1.7
$T_3/T_0$	1.73	1.29	1.06	0.92	0.83	0.79	0.78	0.81	0.9
$T_4/T_0$	4.13	3.12	2.51	2.1	1.77	1.52	1.3	1.1	0.9
$T_k/T_0$	4.83	3.65	2.94	2.44	2.07	1.78	1.53	1.29	1.06

13-rasmda tarangliklar  $T_i$  ( $T_0$  nisbatan) burchak  $\alpha = \alpha_4$  ga nisbatan burchak  $\alpha_3$  ning har xil qiymatlaridagi grafiklari keltirilgan hisoblarda quyidagi parametrlar qabul qilingan:  $f = 0.3$ ,  $\alpha_1 = 45^\circ$ ,  $\alpha_5 = 15^\circ$



13-rasm. Tarangliklar  $T_i/T_0$  larning  $\alpha = \alpha_4$  nisbatan  $\alpha_3$  ning har xil qiymatlarida o'zgarish grafiklari:  $1 - \alpha_3 = 18^0$ ,  $2 - \alpha_3 = 20^0$ ,  $3 - \alpha_3 = 23^0$ ,  $4 - \alpha_3 = 25^0$

Sifatli ipak ishlab chiqarish uchun, avvalo, unga ishlatiladigan xomashyoni to'g'ri tanlash lozim. Bunda pillaning texnologik va fizik-mexanik xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Pilla qobig'ining qalinligi va quvvati, umumiyligi hamda uzlucksiz chuvaluvchan uzunligi, pilla ipining chiziqli zichligi, ipakdorligi, qobiqning qattiqligi bilan uzviy bog'liqidir. Qalinlikning kamayishi sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladi.

Pilla va undan chiqadigan ipning xususiyatlarini tadqiq qilish tajribasi o'tkazildi. Sanoat usulida saralangan pillalarni 15% ini nuqsonli pillalar tashkil etdi, uni nazorat varianti deb belgilandi.

"3A" sinfiga mansub ipak ishlab chiqarish maqsadida pillalar qayta saralandi. Ularning yana 15% ini dog'li va nuqsonli pillalar tashkil etishi aniqlandi. Jami 30% saralanganlari esa tajriba varianti deb belgilandi.

Ipak qurtining zoti, ipning uzilish kuchi va uzilishdagi cho'zilishi, chiziqli zichligi, diametri hamda uzunligi, ip pillaning qaysi qobiq qavatidan olinganligi, namligi, pilla ipi xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Pilladan sifatli xom ipak olish uchun pilla ipining umumiyligi va uzlucksiz chuvaluvchan uzunligi, chiziqli zichligi, chiziqli zichligi bo'yicha notekisligi, uzilish kuchi va uzilishdagi cho'zilishi kabi xususiyalari aniqlandi.

Pilla ipining chiziqli zichligini uning uzunligiga nisbatan o'zgarishi o'rganildi. Yakka tartibda pilla chuvish va undan olingan ma'lumotlarga tayanib, 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarildi. So'ng bug'lash va yakka uchini topishdagi rejimlar o'rnatilib, avtomat pilla chuvish dastgohida xom ipak ishlab chiqarildi. Chuvish jarayonlari o'rnatilgan texnologik xarita bo'yicha olib borildi.

Pilla chuvishning hisobiy tezligi ishlab chiqarish normasini va ipak mahsulotlari chiqishini o'rnatish uchun bir smena davomida, oltita tozda pillalarni chuvish orqali tekshirildi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, olingan pilla iplarining texnologik ko'rsatkichlari

asosida standartning “3A” sinfi talablariga mos 2,33 teks xom ipak ishlab chiqarish uchun hisoblangan miqobil tezlik “Oltin vodiy-2” duragayi pillalarni chuvishda 120-125 m/min bo‘lishi tavsiya etiladi. 3,23 teks xom ipak ishlab chiqarishda esa 125-130 m/min bo‘lishi mumkin.

### 8-jadval

#### **Pilla iplarining texnologik ko‘rsatkichlari**

№	Ipak sifatining asosiy ko‘rsatkichlari nomi	Oltin vodiy-2 duragayi birinchi mavsum			Oltin vodiy-2 duragayi ikkinchi mavsum	
		O’zDST 3313:2018	Haqiqiy ma’lumotlar	Natijalar	Haqiqiy ma’lumotlar	Natijalar
1	Chiziqli zichlik bo‘yicha og‘ishi, ko‘p emas.	0,18	0,17	3A	0,16	2A
2	Mos kelmaslik 1, ko‘p emas.	170	160	3A	210	A
3	Mos kelmaslik 2, ko‘p emas	26	25	2A	30	A
4	Yirik nuqsonlari bo‘yicha tozaligi %, kam emas.	93	93,4	2A	95	4A
5	Mayda nuqsonlari bo‘yicha tozaligi %, kam emas.	90	91	2A	94,3	2A
6	Eng yomon tozaligi, % kam emas.	83	85	2A	90	4A
7	Chiziqli zichligi bo‘yicha maksimal og‘ishi, ko‘p emas.	0,40	0,45	3A	0,52	A
8	Mos kelmaslik 3, ko‘p emas.	0	0	4A	0	4A
9	Qayta o‘rash qobiliyati, uzilishlar soni, ko‘p emas.	4	3	4A	2	4A
10	Nisbiy uzilish kuchi, kam emas.	30	41,3	4A	32,4	4A
11	Uzilishgacha cho‘zilishi, kam emas.	18	18,3	2A	18,7	A
12	Bog‘lanuvchanlik, koretka yurishi, soni kam emas.	60	71	4A	0,52	4A

Tahlillar natijasiga ko‘ra, respublikamiz hududlarida tut ipak qurtining Oltin vodiy-2 duragayini parvarishlash va pilla yetishitirish pillakashlik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Bu esa “3A” sinfga to‘g‘ri keladigan xom ipak ishlab chiqarishda keng foydalanish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Pillaning tolali chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan beshinchi bobo tabiiy ipak tolali chiqindilarining klassifikatsiyasi, pilla losining tolali xususiyatlari, ipak tolali chiqindilari tarkibining texnologik tahlili, ipak tolali chiqindilarining texnologik xususiyatlarini aniqlash uslublari, ipak chiqindilarini dastlabki ishlash texnologiyasini takomillashtirishning mayda va yirik usullari, suyuq gulqog‘oz ishlab chiqarish uchun xomashyo tayyorlash texnologiyasi hamda tolali aralashmalarning xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Tabiiy ipak chiqindilarini sinflash borasida qator olimlar va ipak sanoati mutaxassislari shug‘ullangan. Biroq, hanuzgacha biror-bir ilmiy asoslangan xulosaga kelmaganlar.

N.Galkin, N.Zabelotskiy, M.Korchagin va E.B.Rubinov o‘zlarining ilmiy izlanishlarida ipakning tolali chiqindilarini uni hosil bo‘ladigan joylariga qarab

sinflagan, ya’ni chiqindilarni qayta ishlash mumkin bo‘lganlarini inobatga olib, quyidagi tartibda sinflagan:

– pillani saralash sexida hosil bo‘ladigan chiqindilar: pillaning momiqsimon losi, chuvishga yaroqsiz pillalar (qo‘shaloq, qobig‘i dog‘, qobiq sirti atlassimon, yaroqsiz, qobig‘i teshik, yupqa qobiqli va hokazolar);

– pillakashlik sexida hosil bo‘ladigan chiqindilar: pilla losi, qaznoq, chuvilmaydigan pillalar, ipak uzuqlari, g‘umbak;

– ipak sifatini aniqlash va qadoqlash sexida hosil bo‘ladigan chiqindilar: ipak uzuqlari, xom ipak sifatini aniqlanadigan namunachalar.

Tabiiy ipakning tolali chiqindilarini yuqoridagi tartibda sinflanishi to‘liq emas. Chunki har qanday sinflanish o‘z ichiga sinf, kichik sinf, guruh, kichik guruh va nihoyat turlarga bo‘linadi, yuqoridagi sinflanishda bunday yondoshilmagan.

V.A.Usenko va L.M.Zabelotskiy tabiiy ipakning tolali chiqindilarini, uni qayta ishlash imkoniyatlariga qarab, boy tolali va kam tolali guruhga ajratib sinflashni tavsiya etganlar. Tolali chiqindilarning bunday sinflanishi tadqiqot muammosini to‘liq ochib bermaydi. Chunki sinf va kichik sinf yo‘q, guruh bor, kichik guruh va uning turlari mutlaqo qayd etilmagan.

X.A.Alimova ipak chiqindilarini sinflashga boshqacharoq yondoshgan. Chiqindi tarkibidagi tolalarning miqdoriga qarab ikki xilga:

1) tolaga boy turi bo‘lib, uning tarkibida 80-100 % (qo‘shaloq va teshik pillalar), pilla losi, ipak uzuqlari, pillakashlik dastgohi juvalariga o‘ralgan tolalar;

2) tolaga boy bo‘lmagan turi bo‘lib, uning tarkibida 50 % dan kam tola bo‘ladi (nuqsonli pillalar, qorapachoq pillalar, qaznoq va uchinchi o‘tim to‘sama va hokazolar).

Yuqoridagi tartibda sinflanishda tolaga boy, tolaga boy bo‘lmagan, uzun, o‘rta, kalta va aralash tolali, parallel tolali va chigal tolali hamda ho‘l, nam va quruq turlarga ajratilishi yetarli emas. Chunki pillani tayyorlash jarayonidagi momiqsimon pilla losi bilan pillakashlik korxonasing saralash sexida hosil bo‘ladigan pilla losini, ularning fizik-kimyoviy, fizik-mexanik, geometrik xossalari hamda uning tarkibidagi xascho‘pning miqdori va kelgusida qayta ishlash istiqbollariga ko‘ra bir guruhga kiritib bo‘lmaydi.

### Jumladan:

– **sinf** - chiqindi hosil bo‘lish tarmog‘iga qarab ularni (*pilla sanoati chiqindilariga va ipak sanoati chiqindilariga*) ajratdik;

– **kichik sinf** - chiqindi hosil bo‘ladigan texnologik jarayonga qarab (*qurt boqish, PDIB, pillakashlik, ipakni pishitish, shoyi to‘qish, ipak yigirish korxonalari chiqindilariga*) ajratdik;


– **guruh** - chiqindining turiga qarab (*pillasimon va tolasimon chiqindilarga*) ajratdik;

– **kichik guruh** - chiqindini ishlatish joyiga qarab (*gul qog‘oz ishlab chiqarish, issiqlikni saqlash materiallari, yigirilgan kalava ip, noto‘qima matolar ishlab chiqarish, sirtni faollashtiruvchi moddalar, qog‘oz ishlab chiqarishga*) ajratdik;

– **turi** - tabiiy ipakning tolali chiqindilarini Davlat standartiga muvofiq nomlanishi.

Tabiiy ipakning tolali chiqindilarini bunday tartibda sinflanishini o‘zlashtirishga osonlashtirish uchun sinflash sxemasi ishlab chiqildi (14-rasmga qarang). Birlamchi losni tozalashning ratsional texnologiyasini ishlab chiqishda birinchi navbatda begona zarrachalarni tolalar bilan o‘zaro bog‘lanish xususiyatlarini hisobga olish zarur bo‘lganligi uchun bu masalani chuqur ko‘rib chiqamiz.

Birlamchi losdagi tolali massaning begona aralashmalarining asosiy massasi dastadagi shoxlar yoki poyalar fragmentlari va tut daraxtining quruq zarrachalariga to‘g‘ri keladi.




Dastalarning shox yoki poya fragmentlari supurgi dastalardan birlamchi losni ajratishda yulinib ketadi. Shoxlar materiali dasta materialiga bog‘liq. Odatda supurgi shaklidagi dastalar uchun yog‘och o‘simplik shoxlari (tut daraxti shoxlari, g‘o‘zapoya va b.) yoki o‘tli butalar, o‘simpliklardan (ming boshi, somon va b.) foydalilanadi.


Tut ipak qurti pilla qobig‘ining o‘rashi tabiatan dastalar shoxlarini alohida bog‘lovchi kalta tolalarni bog‘lash va pillani shakllantirish uchun chegaralangan bo‘shliqni qoplab olish bilan boshlanadi. Bunda yuqori adgezion xususiyatlariga ega bo‘lgan seritsin qavati bilan yelimlashdan foydalilanadi. Qurt qobiqni shakllantirishning birinchi bosqichida o‘zidan ipak tomchisini chiqaradi, uni dasta shoxlariga yelimlaydi va o‘zidan ipni cho‘zib chiqaradi. Ipning kalta chigal kesmalari bilan dasta shakllarini yelimlab (4.1, a-rasm), qurt shakllantirgan pilla qobig‘ini chegaralaydi (4.1, b-rasm) va shundan keyingina qobiqni o‘raydi (4.1, v-rasm).



a



b



v

Tabiiy ipak tolalari va dasta shoxlari orasida fizik-kimyoviy yelimlanish bo‘lib, tolali massani tozalashda yelimlangan joylarni buzish talab qilinadi. Bunga mexanik usul – kontakt nuqtalarini uzish va buzish yoki nam-issiq ishlov berishdan keyin seritsinning adgezion xususiyatlarini gidrotermik kuchsizlantirish orqali erishish mumkin.

Tabiiy ipakning tolali chiqindilarini tozalash texnologiyasini amaliyotda amalga oshirish uchun quritish, tolali massani maydalangan zarrachalardan tozalash bo‘yicha kompleks texnologiyani ishlab chiqish zarur.

Dastalar sifatida qurigan poyalar, o‘simlik shoxlari, buta o‘simliklaridan foydalanish, shuningdek, birlamchi losni uzoq vaqt pilla o‘rash, yig‘ish, tashish hamda vaqtinchalik saqlashda atmosfera sharoitlarida, ya’ni berilgan harorat va namlik sharoitlarida o‘simlik aralashmalari namligi materialning me’yoriy namligigacha pasayadi. Havoning namligi 65% va harorat 20°C bo‘lganda, tut daraxtining qurigan zarrachalari taxminan 25% muvozanat namligiga, yog‘och qo‘srimchalarining namligi esa 12,2% ga teng bo‘ldi. O‘simlik aralashmalarining muvozanat namligi uzlusiz o‘zgarib turadi va bu o‘zgarish mavsumga (tashqi muhitning namlik va issiqlik parametrlari) bog‘liq. Daraxtlashmagan o‘simlik zarrachalarining namligi ularga elastiklikni berishini hisobga olagan holda, ya’ni aralashma namligini yo‘qotib, mo‘rtlashadi hamda material namligini kritik namlikka yetkazish ularni mayda zarrachalarga maydalash imkonini beradi. Minimal chigallik va adgezion bog‘liqlikka ega maydalangan zarrachalar umumiylashtirish massadan oson yo‘qotiladi va oddiy silkitish yoki tarash bilan yo‘qotiladi. Shuning uchun, samarali tozalashda tolali massani kritik namlikkacha quritish lozim. Shundan so‘ng o‘simlik aralashmalarini mexanik usulda maydalash zarur.

## 9-jadval

### **Qisqichlar va ignali volchoklarda tozalash va titish o‘timlari bo‘yicha tolali massani ifloslanganlik darajasining o‘zgarishi**

O‘timlar	Ifloslanganlik, %	Tola uzunligi, mm	
		o‘rtacha	shtapel
Boshlang‘ich xomashyo	58,6	31,2	36,6
Birinchi maydalash va qisqichlarda tozalash	50,3	29,6	34,9
Ikkinci maydalash va qisqichlarda tozalash	40,2	27,3	33,8
Birinchi titish va ignali volchokda tozalash	12,4	26,3	32,8
Ikkinci titish va ignali volchokda tozalash	3,4	25,8	31,6

Tolali massaning morfologik tahlili shuni ko'rsatdiki, qisqichlar va ignali volchoklarda ishlov berish tolali massaning ifloslanganligini kamaytirib boradi, ugarlar esa kattaligi va o'simlik zarrachalari bo'yicha turlicha chiqadi.



Quritgandan keyin birlamchi los momig'ining ko'rinishi



Birlamchi los momig'ini birinchi ishlov berish bosqichidan keyin tozalash




Ignal volchok maydalagichda birinchi ishlov berish bosqichidan keyin



Chang va iflosliklar bilan o'simlik aralashmasi

Ignali volchoklarda  $60^{\circ}\text{C}$  haroratda 300-360 minut davomida dastlabki titish va oxirgi tozalash jarayonidan o'tkazilib, so'ng tolali massa quritiladi. Shundan keyin tolali massa suyuq gulqog'oz material shakllantirish uchun yaroqli bo'ladi. Ishlab chiqilgan texnologiya yelimlash usulida texnik maqsadlar uchun qo'llaniladigan noto'qima materiallarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tolali massaning istalgan tozalanganlik darajasini ta'minlaydi.



O'tkazilgan tadqiqotlar asosida birlamchi los tolali massasini o'simlik zarrachalaridan tozalashning yangi texnologiyasi taklif etildi.

Yelimlash usulida ishlab chiqarilgan suyuq gulqog'oz materialarning texnologik va fizik-mexanik ko'rsatkichlari ko'p jihatdan texnologik jarayon parametrlari, texnologik muhitning harorati, ishchi organlarning bosimi va boshqa omillarga bog'liq.

Laboratoriya sharoitlarida bu parametrlarni o'rganish maqsadida tabiiy ipakning qaynatilmagan, maydalangan tolali massalaridan suyuq gulqog'oz materialini shakllantirish parametrlari tadqiq qilindi.

Tolalarni maydalash suyuq gulqog'oz uchun xomashyo, ya'ni tola bo'lakchalari tayyorlash laboratoriya diskretlash qurilmasida bajarildi.

Suyuq gulqog‘oz material ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich xomashyo sifatida ipakchilik saralash sexi va ipak yigirish sanoati chiqindilarining tolali massasidan foydalanildi va texnologik parametrlari 10-jadvalda keltirilgan.

### 10-jadval

#### Gulqog‘oz ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich xomashyo parametrlari

Chiqindilar turi	Xomashyo parametrlari		
	Seritsin miqdori, %	Aralashmalar miqdori, %	Tolalarning o‘rtacha uzunligi, mm
Dastalardagi birlamchi los	28,6±0,5	6,4±0,3	5,6±0,4
Chang va losdan tozalash mashinalari birlamchi losi	24,1±0,5	3,3±0,3	5,5±0,5
Ipak yigirishdagi chiqindilar	1,2±0,1	0,3±0,1	12,1±0,7

Ishlab chiqarilgan gulqog‘ozning fizik-mexanik va texnologik xususiyatlarini sinash standart usullar bo‘yicha “Adras Decor” laboratoriysi dastgohlarida sinovdan o‘tkazildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, gulqog‘oz yuqori mustahkamlik, ishqalanishga chidamlilik va yaxshi havo o‘tkazuvchanlik xususiyatlariga ega.

### 11-jadval

#### Suyuq gulqog‘ozning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

Parametrlar	Variantlar	
	1	2
Komponentlar aralashmasi tarkibi:		
– dastadagi birlamchi los	50	45
– SA-70 dan chiqqan paxtasimon los	50	45
– yigirish sanoati tarandilari	-	10
Suyuq gulqog‘ozning o‘rtacha qalinligi, mm	1,0	1,1
– minimal	0,8	0,85
– maksimal	1,2	1,2
Hajm zichligi, g/sm <sup>3</sup>	0,19	0,18
Havo o‘tkazuvchanlik, l/sm <sup>2</sup> .s	0,15±0,2	0,31±0,3
Chidamlilik, sikllar	1800	1600

Laboratoriya tadqiqotlari natijalari yangi suyuq gulqog‘oz turi tabiiy ipakning gigiyenik xususiyatlariga ega va ijobiy fizik-mexanik ko‘rsatkichlariga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Mazkur materialning yelimlanish qobiliyati yaxshi issiqlik va elektr izolyatsion xususiyatlariga ega yangi suyuq gulqog‘oz asosi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Bu turdagи suyuq gulqog‘ozdan fasad devorlari, ichki devorlar hamda qurilish sanoatida, shuningdek, mebel va boshqa maishiy-texnik maqsadlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarish sifatida foydalanish mumkin.

Bugungi kunda mavjud pillani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi xarajatlarini kamaytirish nuqtayi nazaridan takomillashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Xususan, mavjud pillani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasidagi pillani dastlabki qayta ishslash texnologik zanjiri ortiqcha sanaladi. Shu boisdan, bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, ushbu ilmiy-tadqiqot ishida, mavjud pillani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasidagi pillani dastlabki qayta ishslash texnologik zanjirini olib tashlashni texnik-iqtisodiy asoslash orqali amalga oshirildi. Natijada pilla pishirish texnologiyasini takomillashtirishda

asbob-uskunalarni saqlash, tiklash xarajatlarini kamaytirish evaziga olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 267 mln. 293 ming so‘mni yoki tonnasiga 6 mln. 682 ming so‘mni tashkil etgan. Taklif etilgan qayta ishlashdagi chiqindilar sanalgan birlamchi losni qayta ishlash texnologiyasini amaliyotga joriy etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 1 mlrd. 125 mln. so‘mni tashkil etgan.

## **UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR**

“Mahalliy pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish va losini qayta ishlash texnologiyalarini asoslash” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlar natijalari quyidagilardan iborat.

1. Yangi rayonlashtirilgan “Oltin vodiylar” duragay pillalarini samarali qayta ishlashni ta’minlash uchun ularning qobiqlari texnologik ko‘rsatkichlarini chuqur tadqiqot etish zarurligi aniqlandi.

2. Pilla yetishtirish, ipak ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi jarayonlarida hosil bo‘ladigan tolali chiqindilarni tahlil qilishni takomillashtirilgan tasnifi zarurati aniqlandi.

3. Utilizatsiya qilinmaydigan ipak tolali chiqindilarini suyuq gulqog‘oz uchun xomashyo sifatida qo‘llash imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

4. Turli mavsumlarda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari o‘rganilib, birinchi mavsumda ikkinchi mavsumga nisbatan sifatli tarkibi yuqori bo‘lishi isbotlandi.

5. Ma’lumki, xom ipak ishlab chiqarishda pillalarni chuvishning ratsional foydalanishini ifodalovchi ko‘rsatkichi pillalarning chuvaluvchanligi bo‘lib, birinchi mavsumda yetishtirilgan Oltin vodiylar duragayi pillalari 86,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi mavsumda 82,5% ga teng bo‘ldi.

6. Pillaning tarkibiy tuzilmasi, shakli va suyuqlik muhitdagi harakatining matematik modeli asosida chuvish jarayonida pillaning harakati, tebranish chastotasi hamda ipning ajralishiga ta’sir etuvchi kuchlar aniqlangan.

7. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida qayishqoqlik koeffitsiyentining davriy o‘zgarishi pilla ipining ajralishida ip chiqishini oshirishni, seritsinning erish dinamikasi esa pilla tebranish amplitudasi va chuvish jarayonining barqarorligiga bevosita ta’sir qilishi ilmiy asoslangan.

8. Oltin vodiylar duragay pillalarni saralash jarayonining xom ipak sifatiga ta’sir mexanizmi ipak chiqishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Pillani saralash bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy tajribalar saralashning aniq mezonlar asosida olib borilishi 1-nav pillalarining ulushi 75% dan ortishini ko‘rsatib, korxonaning texnologik jarayonining borishi va mahsulot sifatining keskin yaxshilanishi tasdiqlangan.

9. Chuvish avtomatida ilgichlar soni, chiziqli zichlik, charxning aylanish chastotasi, pilla tashlash normasi, foydali vaqt koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlarni ratsional rejimlari o‘rnatildi. Oltin vodiylar duragaylari bo‘yicha muqobil chuvish tezligi 120–130 m/min bo‘lganda pilla losi chiqishi 6% atrofida xom ipak chiqishining 41–42% ni tashkil etishi aniqlangan.

10. Olib borilgan statistik tahlil asosida pilla chuvish jarayonining texnologik

omillari, chirmovlash uzunligi, roliklar orasidagi masofa va pishirish harorati baholanib, regressiya tenglamasi yordamida chiqish parametrlariga ta'sir darajasi aniqlandi hamda ushbu omillar orasida chirmovlash uzunligi eng muhimi ekanligi ilmiy asoslangan.

11. Tabiiy ipakning tolali chiqindilarini sinflash ilmiy asosda yanada takomillashtirildi. Chiqindilarni sinf, kichik sinf, guruh, kichik guruh, turlar tamoyillari asosida qayta tasniflash taklif qilindi. Natijada pilla sanoati va ipak sanoati chiqindilarini qamrab oluvchi kompleks sinflash sxemasi ishlab chiqildi, bu esa chiqindilarning texnologik xususiyatlarini to'liq baholash va keyingi qayta ishslash yo'nalishlarini ilmiy asoslash imkonini yaratdi.

12. Pillaning turli texnologik jarayonlarida hosil bo'ladigan chiqindilarning tarkibi, fizik-mexanik xossalari va aralashmalar miqdori chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida birlamchi los, torsimon los,uzuqli los, nuqsonli pillalar, qaznoq va boshqa chiqindilarda tola uzunligi, seritsin miqdori, chiziqli zichlik, ifloslanish darajasi keskin farq qilishi aniqlandi. Birlamchi losning ifloslanishi 59,3 % gacha, seritsin miqdori 40–44 % gacha yetishi, torsimon losning uzun tolali chiqindilar toifasiga kirishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

13. Ipak chiqindilarining texnologik parametrlarini tahlil qilish asosida ularni suyuq gulqog'oz ishlab chiqarishda qo'llashning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. Chiqindilar tarkibidagi seritsin miqdori (20–42 %), tolalarning chiziqli zichligi, qattiqligi va chigallanganligi qaynatish jarayonlarida sezilarli darajada kamayishi aniqlandi. Soda-sovunli qaynatish va distillangan suvda qaynatish tajribalari, 7 turdag'i chiqindilar bo'yicha massaning kamayish foizlari aniqlanib, ular suyuq gulqog'oz uchun bog'lovchi tabiiy komponent sifatida qo'llanishi mumkinligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

14. Pillalarning pishirish texnologiyasini takomillashtirishda asbob-uskunalarini saqlash, tiklash harajatlarini kamaytirish evaziga olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 267 mln. 293 ming so'mni yoki tonnasiga 6 mln. 682 ming so'mni tashkil etgan. Taklif etilgan qayta ishlashdagi chiqindilar sanalgan birlamchi losni qayta ishslash texnologiyasini amaliyatga joriy etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 1 mlrd. 125 mln. so'mni tashkil etadi. (narxlar 2025-yil uchun hisoblangan).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ЭШМИРЗАЕВ АЛИШЕР ПАРДАЕВИЧ**

**ОБОСНОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ  
ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННОГО ШЕЛКА-СЫРЦА И ПЕРЕРАБОТКИ  
СДИРА ИЗ МЕСТНЫХ КОКОНОВ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная  
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ (DSc) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ  
НАУКАМ**

**Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.2.DSc/T797.**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Гуламов Азамат Эшанкулович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Набиева Ирода Абдусаматовна**  
доктор технических наук, профессор

**Валиев Гулам Набиджанович**  
доктор технических наук, профессор

**Умаров Шавкат Рамазанович**  
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Научно-исследовательский институт шелководства**

Защита диссертации состоится «15» января 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул.Шохжахон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-222 аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp\_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №261). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации будет размещён в реестре протоколов заседаний Научного совета (реестр протокола расширенного заседания №29) «29» декабря 2025г.



**Х.Х.Камилова**  
Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.З.Маматов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**  
Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На сегодняшний день в мире более чем в 30 странах выращивается тутовый шелкопряд, заготавливается 840-860 тыс. тонн коконного сырья, которое перерабатывается более чем в 60 странах, где производятся шелковые изделия. В промышленности по производству и переработке шелка ежегодно растет спрос на шелковую нить из коконов с высоким метрическим номером. Также большое внимание уделяется изучению технологических режимов подготовки коконов к размотке и непосредственно к размотке, а также внедрению в практику производства высококачественного шелка-сырца на их основе. Важное значение имеет повышение качества продукции, изготавливаемой из полученного шелка-сырца, путем применения новых технологий в производстве. В области производства шелка достигнут ряд достижений в ряде зарубежных стран, как в Китае, Индии, Бразилии, Японии, Южной Корее, и одной из важных задач является повышение эффективности кокономотальных предприятий, создание и совершенствование технологий, обеспечивающих производство конкурентоспособной продукции, а также создание новых ассортиментов.

В мире уделяется большое внимание научно-исследовательским работам, направленным на совершенствование техники и технологий производства шелка. В этом направлении приоритетными считаются исследования, в частности, по эффективному использованию сырья при переработке коконов, созданию и совершенствованию ресурсосберегающих технологий, а также разработке методов получения высококачественного шелка-сырца и конкурентоспособной продукции из него. При этом большое значение имеет разработка необходимых технологических параметров, процесса размотки с учетом особенностей современных пород и гибридов коконов, а также изучение влияния технологических оборудований на качество шелка-сырца.

В нашей республике реализуются широкомасштабные меры по созданию и внедрению в производство новых пород и гибридов тутового шелкопряда, а также по глубокой переработке шелкового сырья. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в том числе, определены задачи, как «...к 2026 году увеличить производство промышленной продукции путем заполнения существующих пробелов в производстве готовых шелковых тканей из шелковой продукции, а также импортозамещающей продукции...». При реализации данной задачи одним из важных вопросов является внедрение кластерной модели развития, предполагающей интеграцию производства и переработки шелка-сырца, начиная с выращивания коконов, создание и внедрение в производство эффективных техники и технологий получения конкурентоспособного и высококачественного шелка-сырца с использованием местного сырья.

Данное научное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 3 мая 2024 года №УП-72 «О дополнительных мерах по ускорению внедрения рыночных механизмов в сфере выращивания шелкопряда и шелководства», Постановлении Президента

Республики Узбекистан от 12 января 2018 года №ПП-3472 «О мерах по дальнейшему развитию шелковой отрасли в республике», от 24 февраля 2023 года №ПП-73 «О мерах по дальнейшему развитию шелковой отрасли», а также в других Нормативно – правовых документах принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

